

CONSTITUTIONAL AND LEGAL FOUNDATIONS OF THE ACTIVITY OF STATE AND NON-STATE EDUCATIONAL ORGANIZATIONS IN THE FIELD OF EDUCATION

Muxammadali OBIDXONOV

*Tutor of the Faculty of International Law and
Comparative Jurisprudence, Tashkent State University
of Law Tashkent, Uzbekistan
E-mail: obidxonovmuhammadali@gmail.com*

Abstract: *This article examines the constitutional and legal foundations of the activity of state and non-state educational organizations in the Republic of Uzbekistan. Based on Articles 50 and 51 of the Constitution of the Republic of Uzbekistan in the new edition of 2023, the Law “On Education” of 23 September 2020, and by-laws aimed at developing public-private partnership in education, the article reveals the content of state guarantees of the right to education and the legal status of non-state educational organizations. A comparative analysis of the constitutional and legislative models of Germany, the Russian Federation, the People’s Republic of China and the Republic of Kazakhstan, as well as international standards (Article 26 of the Universal Declaration of Human Rights, Article 13 of the International Covenant on Economic, Social and Cultural Rights), is carried out. Proposals are substantiated for improving national legislation, including clarifying the criteria for licensing non-state educational organizations, strengthening guarantees of the stability of state support measures, and developing mechanisms of state control over the quality of education while respecting the autonomy of educational organizations.*

Keywords: *right to education, Constitution of the Republic of Uzbekistan, state educational organizations, non-state educational organizations, public-private partnership, licensing, comparative constitutional law, quality of education.*

TA'LIM SOHASIDA DAVLAT VA NODAVLAT TA'LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATINING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI

Muxammadali OBIDXONOV

*Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro
huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti tyutori
Toshkent, O'zbekiston
E-mail: obidxonovmuhammadali@gmail.com*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyatining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari tadqiq etiladi.*

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2023-yildagi yangi tahriri 50- va 51-moddalari, 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun hamda ta'limda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishga qaratilgan qonunosti hujjatlari asosida ta'lim olish huquqining davlat kafolatlari va nodavlat ta'lim tashkilotlarining huquqiy maqomi mazmuni ochib beriladi. Germaniya, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi va Qozog'iston Respublikasining konstitutsiyaviy hamda qonunchilik modellari, shuningdek, xalqaro standartlar (Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 26-moddasi, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 13-moddasi) qiyosiy tahlil qilinadi. Milliy qonunchilikni takomillashtirish, jumladan, nodavlat ta'lim tashkilotlarini litsenziyalash mezonlarini aniqlashtirish, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralarining barqarorligi kafolatlarini mustahkamlash hamda ta'lim tashkilotlarining mustaqilligini hurmat qilgan holda ta'lim sifati ustidan davlat nazorati mexanizmlarini rivojlantirish yuzasidan takliflar asoslantiriladi.

Kalit so'zlar: ta'lim olish huquqi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, davlat ta'lim tashkilotlari, nodavlat ta'lim tashkilotlari, davlat-xususiy sheriklik, litsenziyalash, qiyosiy konstitutsiyaviy huquq, ta'lim sifati.

КОНСТИТУЦИОННО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ГОСУДАРСТВЕННЫХ И НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В СФЕРЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Мухаммадали ОБИДХОНОВ
тьютор факультета международного права и
сравнительного правоведения Ташкентского
государственного юридического университета
г. Ташкент, Узбекистан
E-mail: obidxonovmuhammadali@gmail.com

Аннотация: В статье исследуются конституционно-правовые основы деятельности государственных и негосударственных образовательных организаций в Республике Узбекистан. На основе статей 50 и 51 Конституции Республики Узбекистан в новой редакции 2023 года, Закона «Об образовании» от 23 сентября 2020 года и подзаконных актов, направленных на развитие государственно-частного партнерства в сфере образования, раскрывается содержание государственных гарантий права на образование и правовой статус негосударственных образовательных организаций. Проводится сравнительный анализ конституционных и законодательных моделей Германии, Российской Федерации, Китайской Народной Республики и Республики

Казахстан, а также международных стандартов (статья 26 Всеобщей декларации прав человека, статья 13 Международного пакта об экономических, социальных и культурных правах). Обосновываются предложения по совершенствованию национального законодательства.

Ключевые слова: право на образование, Конституция Республики Узбекистан, государственные образовательные организации, негосударственные образовательные организации, государственно-частное партнерство, лицензирование, сравнительное конституционное право, качество образования.

KIRISH VA TADQIQOT DOIRASI

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumida qabul qilingan yangi tahriri ta'lim sohasidagi konstitutsiyaviy kafolatlarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi. Konstitutsiyaning 50-moddasiga muvofiq, "har kim ta'lim olish huquqiga ega" bo'lib, davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi [1]. Mazkur normada ilk bor konstitutsiyaviy darajada davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari yagona ta'lim tizimining teng huquqli ishtirokchilari sifatida e'tirof etilganligi alohida ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ushbu konstitutsiyaviy e'tirofning o'z-o'zidan amaliy natija bermasligi, u qonunchilikda aniq huquqiy mexanizmlar orqali konkretlashtirilishi lozimligi yuridik fan oldiga muhim vazifa qo'yadi: davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyatining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari qanday elementlardan tashkil topadi va ularni takomillashtirishning qanday yo'nalishlari mavjud?

Ta'lim sohasida davlat monopoliyasidan davlat-xususiy sheriklik modeliga o'tish jarayonida nodavlat ta'lim tashkilotlarining huquqiy maqomi, ularni litsenziyalash va faoliyatini nazorat qilish tartibi, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralarining barqarorligi hamda ta'lim sifatini kafolatlash mexanizmlari o'rtasidagi muvozanat masalasi yetarlicha tadqiq etilmagan. Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, nodavlat ta'lim sektorini huquqiy tartibga solishda haddan tashqari erkinlashtirish ta'lim sifatining pasayishiga, haddan tashqari cheklash esa konstitutsiyaviy huquqning amalga oshirilishiga to'siq bo'lishga olib keladi.

Maqolaning maqsadi, O'zbekiston Respublikasida davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyatining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini kompleks tahlil etish, xorijiy davlatlarning qiyosiy tajribasini o'rganish hamda milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasini rasmiy-yuridik va qiyosiy-huquqiy metodlar, tizimli tahlil, huquqiy normalarni sharhlash metodi hamda xalqaro-huquqiy hujjatlar va xorijiy qonunchilik tahlili tashkil etadi. Normativ bazani O'zbekiston Respublikasi

Konstitutsiyasi va qonunlari, xalqaro shartnomalar, Germaniya, Rossiya, Xitoy va Qozog‘iston konstitutsiyaviy hujjatlari hamda ta‘lim to‘g‘risidagi qonunlari tashkil qiladi.

Ta‘kidlash lozimki, Konstitutsiyaning 50-moddasi ta‘lim olish huquqining to‘rt asosiy kafolatini mustahkamlaydi: birinchidan, har kimning ta‘lim olish huquqi; ikkinchidan, davlatning uzluksiz ta‘lim tizimi, uning turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta‘lim tashkilotlari rivojlanishini ta‘minlash majburiyati; uchinchidan, bepul umumiy o‘rta ta‘lim va boshlang‘ich professional ta‘lim olish kafolati; to‘rtinchidan, umumiy o‘rta ta‘limning majburiyligi. Shuningdek, maktabgacha ta‘lim va tarbiya hamda umumiy o‘rta ta‘lim davlat nazoratida ekanligi belgilangan [1]. Konstitutsiyaning 51-moddasi esa oliy ta‘lim sohasida davlat grantlari asosida tanlov orqali bepul oliy ma‘lumot olish huquqini, oliy ta‘lim muassasalarining o‘zini o‘zi boshqarish, tadqiqot va o‘qitish erkinliklarini kafolatlaydi [1].

Ushbu konstitutsiyaviy normalar 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan O‘RQ-637-son “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunda konkretlashtirilgan. Qonunning 5-moddasi ta‘lim olish huquqini, 15-moddasi ta‘lim olish shakllarini, 29-moddasi ta‘lim tashkilotlarining huquqiy maqomini belgilaydi. Qonunning 31-moddasi bevosita nodavlat ta‘lim tashkilotlariga bag‘ishlangan bo‘lib, ularning yuridik shaxs sifatidagi maqomi, ta‘lim xizmatlari ko‘rsatish tartibi va davlat ta‘lim standartlariga rioya etish majburiyatini nazarda tutadi. 57-modda nodavlat ta‘lim tashkilotlari faoliyatini litsenziyalash tartibini, 62-modda ta‘lim tashkilotlarini moliyalashtirish manbalarini tartibga soladi [2]. E‘tiborga molik jihati shundaki, keyingi tahrirlarda Qonunga 571-modda kiritilib, ayrim nodavlat ta‘lim faoliyati turlarini xabardor qilish tartibida amalga oshirish imkoniyati yaratildi — bu litsenziyalashdan ruxsat berishning soddalashtirilgan shakllariga o‘tish tendensiyasini aks ettiradi [2].

Davlat siyosati darajasida nodavlat ta‘lim sektorini qo‘llab-quvvatlashning muhim huquqiy vositasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 31-yanvardagi PQ-49-son qarori hisoblanadi. Unda davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish, tijorat banklari kreditlari bo‘yicha foiz xarajatlarining bir qismini qoplash, kommunal xarajatlarning 50 foizini besh yil davomida byudjet hisobidan qoplash hamda 2030-yilgacha qurilishga doir foyda solig‘i imtiyozlari nazarda tutilgan bo‘lib, ushbu imtiyozlar ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar farzandlarini bepul qabul qilish sharti bilan bog‘langan [3]. Bu yondashuv nodavlat ta‘lim tashkilotlarini rag‘batlantirishning ijtimoiy majburiyatlar bilan uyg‘unlashtirilgan modelini shakllantiradi hamda Konstitutsiyaning 1-moddasida mustahkamlangan ijtimoiy davlat prinsipining ta‘lim sohasidagi in‘ikosi sifatida baholanishi mumkin [1]. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida ham ta‘lim sifatini oshirish va xususiy sektor ishtirokini kengaytirish ustuvor yo‘nalish etib belgilangan [4].

Xalqaro huquq nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyatining huquqiy asoslarini belgilashda muhim metodologik mo'ljal bo'lib xizmat qiladi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 26-moddasi har kimning ta'lim olish huquqini e'lon qilish bilan birga, ota-onalarning o'z farzandlari uchun ta'lim turini tanlashda ustuvor huquqqa ega ekanligini belgilaydi [5]. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 13-moddasi 3- va 4-bandlari alohida ahamiyatga ega: ular ota-onalarning davlat organlari tomonidan ta'sis etilgan maktablardan farqli, lekin davlat tomonidan belgilangan minimal talablarga javob beradigan maktablarni tanlash erkinligini hamda jismoniy va yuridik shaxslarning ta'lim muassasalari ta'sis etish va ularni boshqarish erkinligini kafolatlaydi [6]. Yevropa Ittifoqi Asosiy huquqlar xartiyasining 14-moddasi 3-bandi ham demokratik prinsiplarga rioya etgan holda ta'lim muassasalari ta'sis etish erkinligini e'tirof etadi [7]. Demak, xalqaro standartlarga ko'ra, nodavlat ta'lim sektori davlat tizimining raqobatchisi emas, balki ta'lim olish huquqini to'laqonli amalga oshirishning zaruriy elementi hisoblanadi.

Germaniya tajribasi. Germaniya Federativ Respublikasi Asosiy qonunining 7-moddasi ta'lim sohasidagi konstitutsiyaviy tartibga solishning klassik namunasi hisoblanadi. Mazkur moddaning 1-bandiga ko'ra, butun maktab tizimi davlat nazorati ostida bo'ladi, 4-bandiga muvofiq esa xususiy maktablar ta'sis etish huquqi kafolatlanadi. Shu bilan birga, davlat maktablari o'rnini bosuvchi xususiy maktablar davlat ruxsatini olishi va o'quv maqsadlari, jihozlanishi hamda pedagog kadrlar tayyorgarligi bo'yicha davlat maktablaridan past bo'lmasligi, o'quvchilarni ota-onalarning mulkiy holatiga qarab saralashga yo'l qo'ymasligi shart [8]. Germaniya modelining ahamiyati shundaki, u xususiy ta'lim erkinligini konstitutsiyaviy kafolat sifatida mustahkamlagan holda, uni sifat va ijtimoiy adolat talablari bilan muvozanatlashtiradi. O'zbekiston uchun bu tajribadan olinadigan asosiy xulosa — nodavlat ta'lim tashkilotlariga qo'yiladigan talablarning aynan konstitutsiyaviy-huquqiy mezonlar (sifat ekvivalentligi va ijtimoiy saralashning taqiqlanishi) orqali belgilanishi maqsadga muvofiqligidir.

Rossiya Federatsiyasi tajribasi. Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasining 43-moddasi ta'lim olish huquqini kafolatlab, davlat va munitsipal ta'lim muassasalarida asosiy umumiy ta'limning bepulligi va majburiyligini belgilaydi hamda ta'limning turli shakllarini qo'llab-quvvatlaydi. Nodavlat ta'lim muassasalari faoliyatining huquqiy asoslari dastlab 1992-yilgi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda, keyinchalik 2012-yil 29-dekabrda 273-FZ-son "Rossiya Federatsiyasida ta'lim to'g'risida"gi federal qonunda mustahkamlangan [9]. Rossiya tajribasining tanqidiy tahlili I.I.Mixeyeva tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, muallif nodavlat oliy ta'lim muassasalari amaliyotida mulk shakllarining qonunda e'lon qilingan teng huquqliligi bilan uning real ta'minlanishi o'rtasidagi tafovutni, litsenziyalash, attestatsiya va akkreditatsiya muddatlarining nomuvofiqligini hamda soliq imtiyozlariga oid normalarning amalda qo'llanilmasligini

asosiy muammolar sifatida ko'rsatadi [10]. Ushbu tahlil O'zbekiston uchun ogohlantiruvchi ahamiyatga ega: qonunda mustahkamlangan kafolatlar ijro mexanizmlari bilan ta'minlanmasa, ular deklarativ bo'lib qolish xavfi mavjud.

Xitoy Xalq Respublikasi tajribasi. Xitoyda nodavlat ta'lim sektori 2002-yil 28-dekabrda qabul qilingan "Xususiy ta'limni rag'batlantirish to'g'risida"gi qonun bilan tartibga solinadi. 2016-yil 7-noyabrdagi tahrir bilan xususiy ta'lim tashkilotlarini notijorat va tijorat turlariga ajratish joriy etildi hamda majburiy ta'lim bosqichida tijorat maktablari faoliyati taqiqlandi [11]. Xitoylik tadqiqotchi Lili Lyu ta'kidlaganidek, ushbu tasniflash islohoti xususiy ta'limni rivojlantirishni rag'batlantirish bilan ta'limning ijtimoiy-ommaviy xarakterini saqlash o'rtasidagi muvozanatni izlash natijasi bo'lib, davlat siyosatining o'zgaruvchanligi sektorda huquqiy barqarorlik muammosini keltirib chiqargan [12]. Xitoy tajribasi nodavlat ta'lim tashkilotlarining tashkiliy-huquqiy shakllarini farqlash (notijorat va tijorat) hamda har bir shakl uchun alohida huquqiy rejim belgilash g'oyasi bilan qimmatlidir; ayni paytda u davlat siyosatining keskin o'zgarishi investorlar ishonchiga salbiy ta'sir ko'rsatishini ham yaqqol namoyish etadi.

Qozog'iston Respublikasi tajribasi. Qozog'iston Respublikasining 2007-yil 27-iyuldagi 319-III-son "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni davlat va xususiy ta'lim tashkilotlarining teng huquqliligini belgilab, davlat ta'lim buyurtmasini xususiy tashkilotlarga ham joylashtirish (jon boshiga moliyalashtirish) mexanizmini joriy etgan [13]. Huquqiy an'analari va boshqaruv tuzilmasi O'zbekistonnikiga yaqin bo'lgan Qozog'iston tajribasi davlat mablag'larini o'quvchi ortidan yo'naltirish modeli nodavlat sektorni rivojlantirishning samarali vositasi bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

Milliy adabiyotda M.Akmalova va M.Yoqubjonovalar nodavlat ta'lim tashkilotlarining ta'lim tizimidagi o'rni va ahamiyatini tadqiq etib, ularning ta'lim xizmatlari bozorida raqobat muhitini shakllantirish, davlat byudjeti yukini kamaytirish va ta'lim sifatini oshirishdagi rolini asoslab berganlar [14]. Toshkent viloyati adliya boshqarmasi mutaxassislari tomonidan ham ta'lim olish huquqining konstitutsiyaviy kafolatlari, jumladan, masofaviy, dual va inklyuziv ta'limga oid yangi qonunchilik normalari sharhlab berilgan [15].

O'tkazilgan tahlil O'zbekistonda davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyatining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirishga doir quyidagi muammolarni aniqlash imkonini beradi. Birinchidan, Konstitutsiyaning 50-moddasida davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlash davlat majburiyati sifatida belgilangan bo'lsa-da, ushbu majburiyatning aniq yuridik mazmuni — qo'llab-quvvatlash choralarining minimal hajmi, barqarorligi va ularni asossiz bekor qilishning taqiqlanishi — qonunchilik darajasida to'liq konkretlashtirilmagan. Ikkinchidan, nodavlat ta'lim tashkilotlarini litsenziyalash mezonlari asosan miqdoriy (moddiy-texnik) ko'rsatkichlarga tayangan bo'lib, Germaniya modelidagi kabi sifat

ekvivalentligi prinsipi yetarlicha aks ettirilmagan. Uchinchidan, davlat ta'lim buyurtmasini nodavlat tashkilotlarga joylashtirish mexanizmi tizimli xarakter kasb etmagan. To'rtinchidan, ta'lim sifati ustidan davlat nazorati bilan ta'lim tashkilotlarining Konstitutsiyaning 51-moddasida kafolatlangan mustaqilligi o'rtasidagi chegaralar aniq belgilanmagan.

Yuqoridagi muammolardan kelib chiqib, quyidagi takliflar asoslantiriladi: "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 31-moddasini nodavlat ta'lim tashkilotlariga nisbatan sifat ekvivalentligi prinsipi (davlat ta'lim standartlariga muvofiqlik sharti bilan o'quv dasturlarini mustaqil belgilash huquqi) bilan to'ldirish; davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralarining kamida besh yillik muddatga barqarorligi kafolatini qonun darajasida mustahkamlash; Qozog'iston tajribasidan kelib chiqib, jon boshiga moliyalashtirish mexanizmini nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlariga bosqichma-bosqich tatbiq etish; Xitoy tajribasini inobatga olib, nodavlat ta'lim tashkilotlarining notijorat va tijorat shakllarini farqlash hamda notijorat tashkilotlar uchun qo'shimcha soliq imtiyozlari rejimini joriy etish; litsenziyalash va akkreditatsiya muddatlarini uyg'unlashtirish orqali Rossiya tajribasida kuzatilgan ma'muriy yukning oldini olish.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqot quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini beradi. Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarini yagona ta'lim tizimining teng huquqli sub'ektlari sifatida e'tirof etib, ularning rivojlanishini ta'minlashni davlatning konstitutsiyaviy majburiyati darajasiga ko'targan. Bu yondashuv xalqaro standartlarga, xususan, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 13-moddasiga to'la muvofiqdir. Ikkinchidan, qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, xorijiy modellar nodavlat ta'lim sektorini tartibga solishda turli muvozanat nuqtalarini tanlagan: Germaniya konstitutsiyaviy sifat mezonlarini, Xitoy tashkiliy-huquqiy shakllarni farqlashni, Qozog'iston jon boshiga moliyalashtirishni asosiy vosita sifatida qo'llaydi. Ularning hech biri mexanik ravishda ko'chirib olinishi mumkin emas, biroq har biridan milliy huquqiy tizimga moslashtirilgan elementlar olinishi maqsadga muvofiq. Uchinchidan, konstitutsiyaviy kafolatlarining samaradorligi ularning qonunchilikda konkretlashtirilishi, moliyaviy ta'minlanishi va ijro mexanizmlari bilan mustahkamlanishiga bog'liq. Taklif etilgan chora-tadbirlar — sifat ekvivalentligi prinsipini joriy etish, qo'llab-quvvatlash choralarining barqarorligini kafolatlash, jon boshiga moliyalashtirishni tatbiq etish va tashkiliy-huquqiy shakllarni farqlash — Konstitutsiyaning 50- va 51-moddalarida mustahkamlangan kafolatlarining to'laqonli amalga oshirilishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumida qabul qilingan yangi tahriri) // O'zbekiston Respublikasi

Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/-6445145> (murojaat sanasi: 25.07.2026).

2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/ru/docs/-5013007> (murojaat sanasi: 25.07.2026).

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 31-yanvardagi PQ-49-son "Davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat umumta'lim tashkilotlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (lex.uz).

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston — 2030" strategiyasi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (lex.uz).

5. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi: BMT Bosh Assambleyasining 1948-yil 10-dekabrdagi 217 A (III)-son rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan, 26-modda. – URL: <https://www.un.org/en/about-us/universal-declaration-of-human-rights>.

6. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt: BMT Bosh Assambleyasining 1966-yil 16-dekabrdagi 2200 A (XXI)-son rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan, 13-modda. – URL: <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/international-covenant-economic-social-and-cultural-rights>.

7. Yevropa Ittifoqi Asosiy huquqlar xartiyasi (2000/C 364/01), 14-modda // European Union Agency for Fundamental Rights. – URL: <https://fra.europa.eu/en/eu-charter/article/14-right-education>.

8. Germaniya Federativ Respublikasining Asosiy qonuni (Grundgesetz für die Bundesrepublik Deutschland) 1949-yil 23-may, 7-modda // Federal Adliya vazirligi rasmiy portali. – URL: https://www.gesetze-im-internet.de/gg/art_7.html.

9. Rossiya Federatsiyasining 2012-yil 29-dekabrdagi 273-FZ-son "Rossiya Federatsiyasida ta'lim to'g'risida"gi Federal qonuni; Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasi, 43-modda // Huquqiy axborot rasmiy portali (pravo.gov.ru).

10. Михеева И.И. Организационно-правовые основы деятельности негосударственных высших профессиональных образовательных учреждений // Университетское управление: практика и анализ. – 2002. – № 4(23). – С. 110–113.

11. Law of the People's Republic of China on the Promotion of Private Education (民办教育促进法): 2002-yil 28-dekabrda qabul qilingan, 2016-yil 7-noyabr va 2018-yil 29-dekabrdagi tahrirlar bilan // China Justice Observer. – URL: <https://www.chinajusticeobserver.com/law/x/law-on-the-promotion-of-private-schools-of-china-20181229>.

12. Liu L. Opportunities and Challenges for Private Education in China: A Review of the Latest Policy Revisions // ECNU Review of Education. – 2023. – Vol.

6, Issue 3. – DOI: 10.1177/20965311221120829. – URL: <https://journals.sagepub.com/doi/10.1177/20965311221120829>.

13. Qozog‘iston Respublikasining 2007-yil 27-iyuldagi 319-III-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni // Qozog‘iston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari axborot-huquqiy tizimi “Әділет”. – URL: https://adilet.zan.kz/rus/docs/Z070000319_.

14. Akmalova M., Yoqubjonova M. Nodavlat ta’lim tashkilotlari ta’lim tizimidagi o‘rni, ahamiyati // Innovations in Science and Technologies. – 2025. – Vol. 2, № 3. – B. 867–873. – DOI: 10.5281/zenodo.15097636.

15. Ta’lim olish huquqining konstitutsiyaviy kafolatlari // Toshkent viloyati Adliya boshqarmasi rasmiy veb-sayti. – URL: <https://toshkent-vil.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=53112> (murojaat sanasi: 25.07.2026).

